
"Hamkorlik" mahallasida zamonaviy sport majmuasi qurilmoqda

Ayni kunlarda Farg'ona shahridagi mahalla fuqarolar yig'inlarida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 oktyabrdagi «2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-408-sonli qaroriga asosan keng ko'lamlı ishlar olib borilmoqda.

Xususan, "Hamkorlik" mahalla fuqarolar yig'ini hududida mini futbol stadioni, basketbol va voleybol hamda bolalar maydonchalarini qurish belgilangan. Hozirda zamonaviy futbol maydonchasida yakuniy ishlar bajarilmoqda, qolganlarida esa qurilish-montaj ishlari davom etmoqda. Mazkur ishlar uchun respublika byudjetidan 500 mln. so'm mablag' ajratilgan.

2023-03-15 18:37:24